

**O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining
2025-yil korrupsiyaga qarshi kurashish
tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT ***

**I. Tashkilotning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi
bajarilgani to'g'risida umumiy axborot¹**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qaroriga ko'ra, Vazirning 2024-yil 4-apreldagi 39-i-son buyrug'i bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ularning ushbu yo'nalishdagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar dastur"i qabul qilindi.

Mazkur buyruqqa ko'ra, Vazir o'rinbosarlari va maslahatchilari, Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi, Moliya-iqtisod boshqarmasi, Axborot xizmati boshqarmasi, Ishlar boshqarmasi, Yuridik boshqarmasi va Komplayens bo'limi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ishlarni tashkil etishga mas'ul etib belgilandi.

Ishlab chiqilgan dasturda quyidagilar belgilandi:

1. Hay'at yig'ilishi yilda bir marta Vazirning o'rinbosarlari boshchiligidagi korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi bo'yicha muhokama qilib borilishini har chorakda tashkil etish.

2. Vazir va o'rinbosarlarining korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusi bo'yicha OAVlarida yarim yilda kamida 1 marta chiqishlarini tashkil etish.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun tegishli boshqarma boshliqlari mas'ul etib belgilandi.

"Korrupsiyaga qarshi kurashishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ularning ushbu yo'nalishdagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar dastur"i 20-bandida Hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorati tashkil etish nazarda tutilgan hamda Hududiy va tarkibiy bo'linmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida tadbirlar tashkil etish vazifasi yuklatilgan.

Joriy yilning 26-iyun kuni Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bosh prokuratura bilan hamkorlikda "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati, yangiliklari va ahamiyatini tushuntirishga bag'ishlangan seminar tadbiri bo'lib o'tdi.

Tadbirda vazirlikning barcha xodimlari, bosh prokuraturadan Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari K.Musashayxov va Huquqni muhofaza qilish akademiyasi prokurori T.Safarovlar ma'ruzalari bilan ishtirok etdi.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Vazirning 2022-yil 5-avgustdagi 31-1-p-son buyrug'i bilan "Investitsiyalar sanoat va savdo vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi faoliyatini amalga oshirishda ichki idoraviy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 19-oktabrdagi 48-p-son buyrug'i bilan "Investitsiyalar sanoat va savdo vazirligi xodimlarining Odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2023-yil 31-iyuldagi 56-i-son buyrug'i bilan "Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi, 2024- yil 1-martdagi "Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komplaens nazorati faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi nizom va 2024-yil 4-apreldagi buyrug'i bilan "Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish to'g'risidagi dastur"i qabul qilindi.

Shu bilan birga, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi xodimlarining Odob-axloq qoidalari (keyingi o'rinlarda – Odob-axloq qoidalari) yangi tahrirda;

-Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi nizomi;

-Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida Odob-axloq komissiyasining yangilangan tarkibi;

-Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarning xavfsizligi kafolatlari va rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi Nizom;

-Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari bo'linmalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom yangi tahrirda qabul qilish uchun ishlab chiqildi.

III. Xavf-xatarlarni baholash²

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022-yildagi PQ-240-sonli Qarori bilan Vazirlikda tegishli funksiyalar xavf-xatarlar darajasini aniqlash bo'yicha baholashdan o'tkazilib kelinmoqda.

2025-yil Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi Vazirning birinchi o'rinbosari N.Xolmurodov tomonidan tasdiqlanib unga vazirlik tarkibiy tuzilmalarining **75 ta** vazifa va funksiyalari kiritilib baholashdan o'tkazildi.

Shundan **41 ta** funksiya o'rta va yuqori deb baholanib, xavflarni kamaytirish bo'yicha boshqarmalar tomonidan ularni bartaraf etish choralari ko'rildi hamda amalga oshirilgan ishlar natijasi bo'yicha ma'lumotlar berildi va mazkur boshqarmalar orasida so'rovnomalar o'tkazildi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirining 2024-yil 4-apreldagi 39-i-son buyrug'i bilan manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasini to'ldirish va tartibga solingan holatlari soni, shu jumladan, ishga qabul qilish, har yillik deklaratsiyalash tartibi belgilandi va komplayens bo'limi tomonidan monitoring olib borish tizimi joriy etildi.

2025-yilda Vazirlikda ishlayotgan jami 375 ta xodimlar va 14 ta hududiy boshqarmalarda jami 974 ta xodimlar tomonidan deklaratsiyalar to'ldirilib, markaziy apparatdan 5 ta va hududiy boshqarmalarning 67 tasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotganligi, 3 ta viloyatda 12 ta xodim budget tashkilotlarida ishlovchilarning 4 va undan ortiq daromad manbaiga egaligi hamda 18 ta nepotizm holatlari aniqlandi. Mazkur masala yuzasidan odob-axloq komissiyasi o'tqazilib manfaatlar to'qnashuvi bartaraf etildi va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha xodimlar ogohlantirildi va qat'iy choralar ko'rildi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni tashkilot shartnomalariga kiritish

Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi qoidalarni tashkilotning xo'jalik shartnomalariga (shartnomalarning foizli nisbati) kiritilgan.

Vazirining 2024-yil 4-apreldagi 39-i-son buyrug'i bilan ishga qabul qilingan nomzodlarni va kontragentlarni tekshirish tizimi joriy etildi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida 2025-yil 217 ta kontragentlar o'rganilib 13 ta shartnomaga salbiy xulosalar berilib 1 ta shartnoma tuzilishi rad etildi.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-iyundagi PQ-228-sonli "Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori bilan Vazirlik markaziy apparatida faoliyat yuritayotgan xodimlarga **"Virtual akademiyada"** o'qish uchun shartnoma tuzilib, ulardan 78 nafar xodimlarni o'qitish ishlari amalga oshirildi.

2025-yil 29-avgust kuni Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida markaziy apparatiga ishga yangi qabul qilingan yosh xodimlarning ijro va mehnat intizomiga rioya qilishlari, shaxsiy va kasbiy rivojlanishlari uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, jamoada ishchanlik, o'zaro hamkorlik, ijobiy muhitni yaratish, ish samaradorligini oshirish hamda yosh mutaxassislarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida, malaka oshirish dasturi doirasida vazirlik tarkibiy bo'linmalari rahbarlari ishtirokida seminar-trening tashkil etildi. Seminarda **Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar**

to'qnashuvi masalalari ko'rib chiqildi. Shuningdek, seminar davomida "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati e'tibor qaratilib, davlat xizmatchilari qonundagi vazifalarga e'tibor berishi bildirib o'tildi.

2025-yil 22-oktabr kuni Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi o'quv markazida Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati hamkorligida o'tkazilgan **"O'zbekistonda davlat xaridlari sohasida korrupsiya xavfini oldini olish va qonunchilikka rioya etish"** bo'yicha tashkil etilgan seminarda komplayens bo'limi ishtirok etib bilim va ko'nikmalar mustahkamlandi. 2025-yil 23-oktabr kuni o'tkazilgan Muhokamalardan amaliy o'zgarishlarga bag'ishlangan **5-Toshkent aksilkorrupsiya forumida** ISSV komplayens bo'limi xodimlari ishtirok etdi va unda xalqaro tajribalar, bilim hamda malakalar almashinildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilning 30-yanvardagi PF-16-son Farmonining 10-ilovasi, 25.1-bandiga asosan 2025-yilning dekabr oyida vazirlik markaziy apparati boshqaruv xodimlaridan 22 nafarini korrupsiyaga qarshi barqarorlik darajasini baholashdan o'tkazildi.

Undan tashqari, Vazirlik xodimlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi boshqaruv samaradorligini oshirish agentligining malaka oshirish platformalarida ham o'quv malakalarini oshirib kelmoqdalar.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar

Jismoniy shaxslar va yuridik shaxs vakillari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida ma'lumot hamda manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar berish imkoniyatini beruvchi quyidagi aloqa kanallari mavjud.

Ishonch telefoni: +998(71)238-50-05;

Murojaat bo'limi: +99871 238-50-00

Komplayens bo'limi: +99871 238-51-50; +998 71 238-51-91

Elektron pochta: anticor@miit.uz, info@miit.uz;

Telegram bot - @anticor_miit_bot

Facebook – anticormiit

Instagram - anticormiit

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi aloqa kanallari orqali shikoyat va arizalar kelib tushmadi.

VII. Monitoring va nazorat³

Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimida hisobot davrida tashkilot tizimi tomonidan mavjud korrupsiyaga qarshi talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillarning bajarilishi monitoring va nazorat o'rnatildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

Vazirlikning Buxoro viloyati Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Xamroyev Ulug'bek Nematovich harakatlarida O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 193-⁴ moddasi 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ya'ni Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilik talablarini bajarmaslik bo'yicha huquqbuzarlik holati aniqlandi. Mazkur holat yuzasidan Vazirlikda Odob-axloq komissiyasi yig'ilishida tanqidiy ko'rib chiqildi hamda 2026-yil 6-yanvardagi 1-xdfu b-e-son bayoni tuzildi.

IX. Xulosalar

Vazirlik tizimida hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimida korrupsiyaga qarshi ishlarni samarali tashkil etish belgilandi.

Shu bilan birga, 2025-yilning 26-iyun kuni Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bosh prokuratura bilan hamkorlikda "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati, yangiliklari va ahamiyatini tushuntirishga bag'ishlangan seminar tadbiri bo'lib o'tdi va davlat xizmatchilarga qonun bilan belgilangan cheklovlar tushuntirildi.

Joriy yilning 2025-yil 27-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi xodimlari o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish va qonunbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktika tadbiri bo'lib o'tdi.

Shunga ko'ra, vazirlik xodimlari investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda xalqaro biznes hamjamiyati o'rtasida vazirligimizning roli kattaligini inobatga olib, korrupsiyaga qarshi kurashish va xodimlar korrupsiya bo'yicha qonunbuzarliklarga yo'l qo'ymasligini ta'kidladi.

Shu o'rinda, vazirlik xodimlarini korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishga hamda o'z xizmat vazifalarini halol va xolis bajarishga chaqirildi.

Bundan tashqari, Korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etganlik uchun qanday javobgarlik belgilanganligi, kelib chiqish sabablari, barvaqt oldini olish va uning ko'rinishlari to'g'risida bildirib o'tildi.

Shu bois, Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishda sezilarli natijalarga erishildi.

Komplayens bo'limi boshlig'i



B.Ibadullayev

**Korrupsiyaga qarshi davlat dasturida nazarda tutilgan
chora-tadbirlarning ijrosi haqida
HISOBOT**

T/r	Tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Amalga oshirilgan choralar
1.	Hay'at yig'ilishida yilda bir marta Vazirning o'rinbosarlari boshchiligida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi bo'yicha muhokama qilib borishni har chorakda tashkil etish.	Har yil	2025-yil 27-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri maslahatchisi boshchiligida xodimlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish va qonunbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktika tadbiri o'tkazildi (2-UB-son Bayoni)
2.			
3.			

Komplayens bo'limi boshlig'i



B.Ibadullayev